

**SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANUVCHI
ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH**

Rahmatova Dilorom Dilmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi

yo'nalishi magistranti

Email: raxmatovadilorom88@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining iste'molchi huquqlariga ta'siri, xususan, shaxsiy ma'lumotlarning yig'ilishi, qayta ishlanishi va undan foydalanish bilan bog'liq huquqiy muammolar yoritilgan. Sun'iy intellektning imkoniyatlari ortib borar ekan, u iste'molchilar uchun ko'plab qulayliklar yaratmoqda, biroq bu jarayonda ularning shaxsiy hayoti va ma'lumotlari xavf ostida qolmoqda. Maqolada AI tomonidan amalga oshirilayotgan avtomatlashtirilgan qarorlar, profiling, diskriminatsiya xavfi va axborot xavfsizligiga tahdidlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning huquqiy jihatdan tartibga solinishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, iste'molchi huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, avtomatlashtirilgan qaror, algoritmi, huquqiy muhofaza, profiling, raqamli xavf, AI tizimlari.

**ЗАЩИТА ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ, ИСПОЛЬЗУЮЩИХ
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ**

Рахматова Дилором Дилмуродовна

Магистрант направления «Право средств массовой информации»

Ташкентского государственного юридического университета

Email: rakhmatovadilorom88@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта (ИИ) на права потребителей, в частности,

правовые проблемы, связанные со сбором, обработкой и использованием персональных данных. По мере роста возможностей ИИ, он создает множество удобств для потребителей, однако в то же время ставит под угрозу их личную жизнь и данные. В статье анализируются такие аспекты, как автоматизированные решения, формирование профилей, риск дискриминации и угрозы информационной безопасности, создаваемые ИИ. Также подчеркивается необходимость правового регулирования данных технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, права потребителей, персональные данные, информационная безопасность, автоматизированное решение, алгоритм, правовая защита, профилирование, цифровая угроза, ИИ-системы.

PROTECTION OF CONSUMER RIGHTS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Rakhmatova Dilorom Dilmurodovna

Master's student in the field of Mass Media Law

Tashkent State University of Law

Email: rakhmatovadilorom88@gmail.com

Abstract: *this article explores the impact of artificial intelligence (AI) technologies on consumer rights, particularly the legal issues related to the collection, processing, and use of personal data. As AI capabilities continue to grow, they offer many conveniences for consumers; however, they also pose significant risks to personal privacy and data security. The article analyzes automated decision-making, profiling, risks of discrimination, and threats to information security introduced by AI. It also emphasizes the need for legal regulation of these technologies.*

Keywords: *artificial intelligence, consumer rights, personal data, information security, automated decision, algorithm, legal protection, profiling, digital threat, AI systems.*

KIRISH

So'nggi yillarda texnologiyalar rivojlanishi deyarli barcha sohalarda qiyinchilik bo'lib kelgan muammolarni yechimini oson yo'l bilan hal qilishga yordam bermoqda. Hozirgi zamonaviy davrda sun'iy intellektdan turli sohalar foylanib kelmoqda ayniqsa, elektron tijorat, moliya, sog'liqni saqlash va axborot texnologiyalarida keng qo'llanilmoqda. Sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqib oladi. Bu texnologiyalar iste'molchilarga ko'plab qulayliklar yaratib bermoqda, ammo iste'molchilarning huquqlari uchun yangi xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Masalan, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari (algoritmalar) natijasida diskriminatsiya, shaxsiy ma'lumotlarning suiiste'mol qilinishi, shaffoflikning yo'qligi va huquqiy aniqlik yetishmasligi kabi muammolar paydo bo'lmoqda.

ASOSIY QISM

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt atamasi 1955-yilda Jon Makkarti (John McCarthy) tomonidan kiritilgan. 1956-yilda Makkarti va boshqalar Sun'iy intellekt bo'yicha Yozgi Dartmut Tadqiqot Loyihasi konferensiyasini tashkil etishdi. Ushbu tashabbus mashina o'rganishi, chuqur o'rganish, bashoratli tahlillar

kabi ko'p ixtirolar qilinishiga olib keldi. Undan tashqari, bu tashabbus yangidan-yangi sohani — ma'lumotshunoslikni (data science) keltirib chiqardi.

1990-yillarda sun'iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997-yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo'ldi.

Sun'iy intellekt — tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo'llash orqali insonning aql-idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi. Sodda qilib aytganda, sun'iy intellekt kompyuterlarni odam kabi o'ylash va ulardek yechim topishga yo'naltiradigan texnologiyadir.

Ushbu maqsadga erishish uchun uchta asosiy tarkibiy qism talab qilinadi:

1. Hisoblash tizimlari (katta quvvatli kompyuterlar);
2. Katta ma'lumotlar va ularni boshqarishda ko'nikmalar;
3. AI algoritmlari (dasturiy kod);

Sun'iy intellekt inson aqliga qanchalik yaqin bo'lsa, uni yaratish shunchalik ko'p ma'lumot va hisoblash resurslarini talab qiladi.¹

Sun'iy intellekt tizimlari odatda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaydi. Bu ma'lumotlar orasida shaxsiy (masalan, ism, manzil, biometrik ma'lumotlar, xulq-atvor ma'lumotlari) axborotlar ham bo'lishi mumkin. Sun'iy intellektidagi iste'molchi- sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi yoki u bilan bevosita aloqada bo'lgan va unga sun'iy intellekt xizmat ko'rsatgan jismoniy shaxsga aytiladi. Sun'iy intellekt iste'molchilarni barcha buyruqlarini bajaradi. Jumladan moliyaviy, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda tahlil qilish, hattoki

¹ <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/qiziqarli-faktlar/suniy-intellekt/>.

huquqi masalalarda ham sun'iy intellekt iste'molchilarga yordam berib kelmoqda. Ammo sun'iy intellektdan foydalanish iste'molchini huquqlarini buzilishiga ham olib kelmoqda. Jumladan, shaxsiy ma'lumotga tahdid ya'ni sun'iy intellektdan foydalanishdan avval e-mail pochta ma'lumoti kiritiladi undan so'ngini sun'iy intellektdan foydalanish huquqi beriladi. Bundan tashqari, iste'molchi sun'iy intellektdan o'ziga kerakli va qiziqarli ma'lumotlarni qidirib buyruq beradi natijada sun'iy intellekt bu shaxs haqida shaxsiy ma'lumotlarni to'play boshlaydi. Sun'iy intellekt tizimlari shaxsiy ma'lumotlarni yig'adi va bu orqali foydalanuvchi xatti-harakatini prognoz qiladi, shu shaxsga mos ravishda ya'ni uning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda xizmat ko'rsatadi. Sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarni yig'ib, qayta ishlaydi. Foydalanuvchilarning xarid tarixi, internetdagi harakatlari, sog'liq holati kabi nozik ma'lumotlari avtomatik tarzda tahlil qilinadi.

Bu esa "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun va Yevropa Ittifoqining GDPR normalariga zid holda ma'lumotlarni qayta ishlashga olib keladi. Iste'molchi huquqlari — bu foydalanuvchi sifatida har bir shaxsga xizmat yoki mahsulotdan foydalanishda berilgan qonuniy kafolat va erkinliklardir. BMT tomonidan 1985-yilda e'lon qilingan "Iste'molchilarning asosiy huquqlari" to'g'risidagi hujjatga ko'ra, iste'molchining asosiy huquqlari quyidagilar:

1. Xavfsiz mahsulot yoki xizmat olish huquqi;
2. To'g'ri va to'liq axborot olish huquqi;
3. Tanlov erkinligi;
4. E'tiroz bildirish va da'vo qilish huquqi;
5. Zarar uchun kompensatsiya olish huquqi.

Yevropa Ittifoqi AI Act – AI xavf darajasiga qarab tartibga solinadi. OECD SI tamoyillari – inson huquqlari, shaffoflik, hisobdorlikka urg'u beradi. UNESCO SI Etika Tavsiyasi (2021) – AI inson qadriyatlariga hurmat asosida ishlashi kerakligini belgilaydi.

Bundan tashqari, iste'molchilar huquqlar Milliy qonunchilik jihatdan ham himoya qilinadi. Jumladan, **“Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonun, “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** kabi qonunchiliklar bilan iste'molchilarning huquqlari himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 33-moddasida axborot olish va iste'molchi manfaatlarini himoya qilish kafolatlanadi.² “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunning 23-24-moddasida iste'molchilar huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, sudlar ta'minlaydi. Ushbu qonunning 27-moddasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik haqida bo'lib, iste'molchilarga zarar yetkazganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi. 29-moddasiga binoan iste'molchining huquqlari buzilgan taqdirda, u sudga murojaat qilishga haqlidir. Da'volar, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, javobgar, iste'molchi joylashgan yerdagi yoki zarar yetkazilgan joydagi sudga taqdim etiladi.³ **“Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonunga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu qonuning 27-moddasida shaxsga doir ma'lumotlar davlat**

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

³ 221-I-coh 26.04.1996. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun.

tomonidan himoya qilinishi ta'kidlab o'tilgan. 33-moddasida ushbu qonuni buzganlik uchun javobgarlik masalasi keltirilgan belgilangan tartibda javobgarlikga tortiladi.⁴

Sun'iy intellekt javobgarlik masalasi hozirgi kunda ochiq qolmoqda. O'zbekistonda chora-tadbirlar ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, sun'iy intellekt sohasidagi xatarlarni nazorat qilish va oldini olish tizimini takomillashtirish, shu jumladan sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan dasturlarning xavfsiz ishlashi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning oldini olish, shuningdek, foydalaniladigan ma'lumotlarning konfidensialligini ta'minlash, sun'iy intellekt sohasidagi xalqaro standartlarni O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari sifatida qabul qilish, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus huquqiy rejimni yaratish kabi chora-tadbirlar olib borilmoqda. Buning uchun xorijiy ekspertlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda strategiya loyihasini tayyorlash bo'yicha ishchi guruhni shakllantirish. Strategiyani tasdiqlashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish kabi amalga oshirish mexanizmlar joriy qilinmoqda.⁵

XULOSA

Sun'iy intellekt texnologiyalari inson faoliyatining turli sohalarida qulaylik va samaradorlikni oshirayotgan bo'lsa-da, u bilan bog'liq huquqiy va axborot xavfsizligi muammolari iste'molchi huquqlarining buzilishiga olib

⁴ O'RQ-547-son 02.07.2019. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun.

⁵ PQ-4996-son 17.02.2021. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida
<https://lex.uz/ru/docs/-5297046>.

kelmoqda. Ayniqsa, AI tizimlarining shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va ulardan foydalangan holda qarorlar qabul qilishi iste'molchilarning rozilgisiz amalga oshirilayotgan holatlar xavf tug'dirmoqda. Shu sababli, sun'iy intellektdan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi bo'yicha qat'iy huquqiy normalar ishlab chiqilishi va amaliyotda qo'llanilishi zarur. Iste'molchilarni axborotga nisbatan ongli yondashishga va sun'iy intellekt xizmatlaridan foydalanishda ehtiyotkor bo'lishga chaqirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/qiziqarli-faktlar/suniy-intellekt/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. 221-I-coH 26.04.1996. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun.
4. O'RQ-547-coH 02.07.2019. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun.
5. PQ-4996-coH 17.02.2021. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori.